

MAQSUD SHAYXZODA- IKKI XALQNING SO'NMAS YULDUZI

Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi

TOSHKENT DAVLAT

TRANSPORT UNIVERSITETI

Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi

[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushnu maqolada ikki xalqning ardoqli shoiri, dramaturg, adabiyotshunos olim, tanqidchi, noshir, tarjimon, pedagog Maqsud Shayxzodaning hayoti va betakror ijodiga chuqur nazar solingan. Shuningdek, Maqsud Shayxzoda haqida hikoya qiladigan ushbu maqolamiz Shayxzodaning hayot va ijodiy faoliyatiga katta qiziqish uyg'otadi.

**Kalit so'zlar.** Maqsud Shayxzoda, she'r, ijodiy faoliyat, ey ko'ngil, daydi shamol, yulduzlarga bo'ldim hamsoya she'rlari.

Ikki xalqning asl ijodkori, adabiyot atalmish ilohiy ijod gulshaniga butun umrini baxshida etgan jonkuyar ijodkor Maqsud Shayxzodaning hayotida bo'lgan voqealar o'quvchi e'tiborini o'ziga butkul jalb qilib, uni tugamas hayajon, hamdardlik, achinish, vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat tuyg'ularini yuksak ifodalaydi.

Ikki xalqning asl farzandi XX asr o'zbek adabiyotining betakror vakili Maqsud Maqsumbek o'g'li Shayxzoda 7-noyabr 1908-yilda Ozarbayjon Respublikasi, Ganja viloyati, Oqtosh shahrida tavallud topgan. Maqsud Shayxzoda serqirra ijodkor sifatida ko'p yillar shoir, dramaturg, adabiyotshunos, pedagog, noshir, tarjimon, publistist yo'nalishlarida faoliyat yuritgan. Uning bu mehnatlari 1964-yilda unga „ O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" yuksak unvonini olib keldi. Ijodkor dastlab Bokudagi doril-muallimni 1925-yilda a'lo



baholarga tugatgan. Keyinroq Darbanddagi 1-bosqich ozarbayjon maktabida va Bo'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qituvchi bo'lib ishlagan. Shayxzoda uchun umrning eng quyoshi nur sochmay qolgan kunlar yaqin edi. Ijodkor 1927-yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida hibsga olinib, 1928-yil fevralda Toshkentga surgun qilingan. Shayxzoda O'rta Osiyo unversitetining Sharq fakultetida qisqa muddat o'qigani (1928)dan keyin „Sharq haqiqati“ (1929—32), „Qizil O'zbekiston“, „Yosh leninchi“ gazetalari (1932), „Guliston“ jurnali (1933—34) tahririyatlarida xizmat qilgan. 1933-yil Bokudagi pedagogika institutining barcha kurslari uchun imtihon topshirib, Fan qo'mitasi qoshidagi aspiranturaga o'qishga kirgan (1934). Ayni paytda Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlagan (1935—1938). 1938-yildan umrining oxiriga qadar dastlab kechki, so'ngra kunduzgi pedagogika institutlarida o'zbek adabiyoti tarixidan ma'ruza o'qigan. Shayxzoda Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan „Jaloliddin Manguberdi“ (1944) tragediyasida o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mug'ul istilochilariga qarshi kurashgan so'nggi Xorazm shoxining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. „Mirzo Ulug'bek“ (1961) tragediyasida Shayxzoda bosh qahramon obrazini Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek xalqi hayotida ro'y bergan uyg'onishning yorqin timsoli sifatida aks ettirgan. Shekspirona uslubda yozilgan bu asarda Shayxzoda Ulug'bek hayotining sunggi 2 yilini tasvirlash orqali uning jahon fani tarixidan munosib o'rin egallagan mashxur olim, adolatparvar va haqiqatparvar davlat arbobi va ayni paytda saltanatning mutaassib kuchlari oldida ojiz bir inson bo'lganini ham haqqoniy ko'rsatgan. Shekspirona ko'lam va harorat bilan yozilgan „Mirzo Ulug'bek“ tragediyasining maydonga kelishi o'zbek dramaturgiyasi va teatri tarixida katta voqea bo'ldi. Shayxzoda ssenariysi asosida rejissor L. Fayziyev tomonidan yaratilgan „Ulug'bek yulduzi“ (1964) filmi esa keng xalq ommasiga ulug' o'zbek olimi va uning fojiali taqdiri bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muxim rol o'ynadi. U



Sh.Rustavelining „Yo‘lbars terisini yopingan paxlavon“ (hamkorlikda) eposi, U.Shekspirning sonetlari, A.S. Pushkinning she‘rlari, „Mis chavandoz“ dostoni, „Motsart va Salyeri“ tragediyasi, M.Yu. Lermontovning she‘rlari va „Kavkaz asiri“ dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi. O‘zbek va ozarbayjon xalqining suyuqli farzandi 1967-yil Toshkentda olamdan o‘tdi.

2001-yili o‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan taqdirlandi. Maqsud Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti, madaniyati ravnaqiga qo‘shgan hissasi mustaqil O‘zbekiston va uning hukumati tomonidan munosib baholandi. Qator maktab va ko‘chalar uning nomi bilan ataldi.

Ijodkorning „Daydi shamol“, „Yulduzlarga bo‘ldim hamsoya“, „Tingla, ey ko‘ngil!“, „Bahorda yomg‘ir“ nomli she‘rlarida tabiat go‘zalliklari, jo‘shqinlik, sevgi, vatanga mehr kabi tuyg‘ular yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, „Daydi shamol“ she‘rida shoir shamolni sarxush-sargardon kezayotgan oshiqqa qiyoslaydi. Yana shunday jumlar borki:

“Bir paypaslab quchib o‘tdingmi,

Tog‘lardagi qorli sallani?”

Bunda shoir qahraton qish kunlaridan keyin erta bahorda tog‘ cho‘qqilarida qolib, quyosh nurlarida billurdek yaltirayotgan qorlarni sallaga qiyoslaydi.

“ Ko‘rdingmi suv labida tanho,

Xumor bo‘lgan bir xilvatzorni?

Xilvatlarga sig‘ingan ishqqa,

Nag‘ma aytib turgan anhorni?”

Shoir shamollarga murojaat qilar ekan u har yerda tog‘ cho‘qqilarida, anhor bo‘ylarida, xilvatlarda, shoirning hayotbaxsh she‘rlarida kezib yurishiga, sokin turgan darpardalarni sekin silab o‘tishiga, ko‘klam bahorda chamanlar-u gunafshalarning xushbo‘y atrini olamga yoyishini nafis so‘zlar orqali ifodalab



bergan.

Ijodkorning “Yulduzlarga bo’ldim hamsoya “ she’rida ko’kka poyama-poya chiqishi, oymomoni oltin oy misolida yostiq deb bilishi, oq bulutlarni esa ostimdagi to’shak deb tasvirlashi uning mubolag’a san’atidan yuqori darajada xabardorligidan nishonadir. Dilimizdan jo’sh urgan tilaklarimizni quyoshdek baland va charog’on ko’rishi, yomg’irlarni esa peshonasi teri va bunda o’zini uchqur otdek his qilishini tasvirlagan. Va she’r yakunida:

“ Qulochni yoz, vatan,  
Uzoqlarga uch,  
Tog’lar hassang bo’lsin,  
Qit’alarni quch!”

Jumlalari shoirning marrani katta olishlik, ulkan maqsadlar qo’yib harakatdan zinhor to’xtamaslik, bunda tog’larni o’zingga suyanchiq, hassa deb bilishlik, jahon bo’ylab kezishlik jumalari insonga haqiqiy kuch bag’ishlaydi.

Ijodkor faoliyatida she’riyat, insoniyat tabiati va umrini yashnatib turuvchi ulug’ xosiyatlardan biri sifatida ulug’lanadi. She’riyat bilan oshno bo’lgan qalb, muallif fikricha, inson fe’l-atvorini, nur-u ziyosini, ma’naviyatini sermazmun, aqlini teran qiladi hamda barkamol ruhiyat shakllanishiga kuchli ta’sir qiladi.

Adabiyot osmonida so’nmas yulduzga aylangan XX asr o’zbek va ozarbayjon xalqining yuksal iste’dodli vakili Maqsud Shayxzoda o’quvchiga mashaqqatlar qarshisida, sabotli, irodali, marhamatli, jasur va mard bo’lishni, vatanni sevishga, atrofimizdagi bo’layotgan voqealarga boshqacha nigoh bilan boqishni o’rgatadi. Har qanday mashaqqat va qiyinchiliklardan so’ng, yana ilgariga qadam bosish va har qanday murakkab vaziyatda ham Hazrati Insoniylikka sodiq qolishga chorlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/maqsud-shayxzoda-1908-1967/>.



2. Chorak asr devoni. M.Shayxzoda. “Adabiyot nashriyoti”. T.-1958.
3. <https://uz.m.wikipedia.org>
4. <https://akademiklar.uz>

